TEODOR DRAYZER VA GEKTOR MALO ADABIY ASARLARINING JAHON ADABIYOTIDAGI O‘RNI

Alibekova Dilrabo Abdiraimovna
Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Teodor Drayzer va Gektor Maloning adabiy merosi hamda ularning jahon adabiyotidagi o‘rni tadqiqot obekti etib olindi. Tadqiqotda Drayzerning realizm va naturalizm oqimlari orqali jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, ma’naviy inqiroz va inson orzularining to‘qnashuvi kabi mavzularni yoritganligi yoritib o‘tilgan. Shuningdek, Gektor Maloning bolalar adabiyotiga ijobiy ruh, insonparvarlik va mehr-muhabbat g‘oyalarini olib kirganligi alohida e’tiborga olingan.*

Kalit so‘zlar: *Teodor Drayzer; Gektor Malo; jahon adabiyoti; realizm; naturalizm; insoniy qadriyatlar; ijtimoiy tengsizlik; bolalar adabiyoti; ma’naviyat; inson ruhiyati.*

РОЛЬ ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ТЕОДОРА ДРАЙЗЕРА И ГЕКТОРА МАЛО В МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Алибекова Дилрабо Абдираимовна
преподаватель
Самаркандского государственного
института иностранных языков

Аннотация: *В данной статье объектом исследования выбрано литературное наследие Теодора Драйзера и Гектора Мало, а также их место в мировой литературе. В работе отмечается, что Драйзер, следуя направлениям реализма и натурализма, раскрыл такие темы, как социальное неравенство, духовный кризис и столкновение человеческих мечтаний с реальностью. Кроме того, особое внимание уделено вкладу Гектора Мало в детскую литературу, в которой он утвердил идеи гуманизма, доброты и любви к людям.*

Ключевые слова*: Теодор Драйзер; Гектор Мало; мировая литература; реализм; натурализм; человеческие ценности; социальное неравенство; детская литература; духовность; внутренний мир человека.*

THE ROLE OF THEODORE DREISER AND HECTOR MALOT’S LITERARY WORKS IN WORLD LITERATURE

Alibekova Dilrabo Abdiraimovna
Teacher of Samarkand State Institute of Foreign Languages

Annotation: *In this article, the literary heritage of Theodore Dreiser and Hector Malot, as well as their role in world literature, is taken as the object of research. The study highlights how Dreiser, through the movements of realism and naturalism, depicted themes such as social inequality, moral crisis, and the conflict between human dreams and reality. In addition, special attention is given to Hector Malot's contribution to children's literature, particularly his introduction of humanism, kindness, and compassion as central ideas.*

Key words: *Theodore Dreiser; Hector Malot; world literature; realism; naturalism; human values; social inequality; children's literature; spirituality; human psychology.*

Kirish

Jahon adabiyoti insoniyatning ruhiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotini aks ettiruvchi bebaho boylikdir. Har bir davr o‘z yozuvchilari orqali zamon muammolarini, inson tabiatini va jamiyatdagi o‘zgarishlarni asar qahramonlari hayoti misolida yoritadilar. Shunday adiblar orasida Teodor Drayzer va Gektor Malo o‘zlarinig asl bebaho asarlari bilan alohida ta’rifga egadirlar. Har ikkala adib ijodi nafaqat jahon adabiyoti tadqiqotchilari balki tilshunos olimlari tomonidan keng tadqiq etib kelinmoqda.Ularning adabiy yo‘li adabiyot yo‘lida tadqiqot etuvchi olimlar tomonidan quyidagicha fikrlar berilgan: Ularning ijodi inson hayotining murakkab jihatlarini, ijtimoiy adolatsizlik va axloqiy qadriyatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni ifodalab, jahon adabiy tafakkurining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.[1] Teodor Drayzer asarlari dunyo hamjamiyati muammolarining keng ko‘lamda o‘rganilishiga asos bo‘la oldi.[2] Balki aynan shu asarlar tufayli bugungi dunyoda gender tengligi tushunchalari nomoyon bo‘ldi. Ushbu maqolada Drayzer va Maloning asarlari tahlil qilinib, ularning adabiyotdagi o‘rni va ahamiyati ifodalanadi.

Asosiy qism

Teodor Drayzer (1871–1945) amerikalik buyuk yozuvchi bo‘lib, realizm va naturalizm oqimlarining yirik namoyandalaridan biridir. Uning ijodida hayotning haqiqiy qiyofasi, inson orzulari va jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik muammolari asosiy o‘rinni egallaydi. Drayzerning Jennie Gerhardt (Jenni Gerhard), **“Sister Carrie”** (Baxtiqaro Kerri) va **“An American Tragedy”** (Amerika fojeasi) romanlari orqali o‘quvchi Amerika jamiyatining ichki muammolari — boylik ortidan quvish, ma’naviy qadriyatlarning yemirilishi, ijtimoiy tabaqalanish kabi masalalar bilan ogoh bo‘ladi.[3] Uning asarlaridagi qahramonlar hayotning og‘ir sinovlari qarshisida kuchsiz, ammo

[1] Fauvel, A. (2008). La voix des fous. Hector Malot et les «romans d'asile». *Romantisme*, *141*(3), 51-64.
[2] Elias, R. H. (1952). Theodore Dreiser.
[3] Dreiser, T. (2021). *An American Tragedy*. Graphic Arts Books.

haqiqat izlovchi insonlar sifatida tasvirlanadi. Bu holat Drayzerning inson taqdiriga chuqur falsafiy va ijtimoiy yondashuvini ifodalaydi.[4]

Gektor Malo (1830–1907) esa fransuz adabiyotining eng samimiy va insonparvar yozuvchilaridan biri hisoblanadi. Uning eng mashhur asari — **“Sans famille”** (“Oilasiz)”, 1878) butun dunyoda millionlab o‘quvchilar qalbidan joy olgan bebaho asardir va juda ko‘p tillarga tarjima qilingan. Malo bu asar orqali bolalik, mehr, sadoqat va sabr-toqat kabi umumbashariy qadriyatlarni tarannum etadi. Uning asarlarida insonparvarlik, saxovat va hayotning yorqin tomonlariga ishonch ustuvorlik egallaydi. Malo fransuz realizmining yumshoq, hissiy va tarbiyaviy ruhga ega shaklini yaratgan adib sifatida tanilgan va uning asarlarida optimizm oqimi yaqqol namoyon bo‘ladi.[5]

Ikkala yozuvchini birlashtiruvchi jihat — bu inson ruhiyati va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni yoritib berishidir. Drayzerning qahramonlari jamiyat shafqatsizligi bilan kurashsa, Malo qahramonlari mehr va insoniylik orqali hayot sinovlarini yengib o‘tadi. Ularning asarlari turli mamlakatlarda, turli davrlarda yaratilgan bo‘lsa-da, mazmunan bir nuqtada — inson va uning ma’naviy dunyosi atrofida birlashadi va jamiyat muammolarini asar qahramonlari kurashlari asosida yengishga harakat qiladilar. Shu sababli, Drayzer va Malo ijodi nafaqat o‘z davrining adabiy manzarasini belgilagan, balki jahon adabiyotida umuminsoniy qadriyatlar ifodachilariga aylangan shoh asarlardir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Teodor Drayzer va Gektor Malo jahon adabiyotining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk yozuvchilardandir. Drayzer asarlarida ijtimoiy adolatsizlik, ma’naviy inqiroz va inson orzularining to‘qnashuvi yorqin tasvirlansa, Malo asarlarida mehr, do‘stlik va insoniylik asar so‘ngida g‘alaba qiladi. Ularning ijodi bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, har bir o‘quvchini insoniy qadriyatlar, hayot ma’nosi va ezgulik haqida chuqur o‘ylashga undaydi. Shu tariqa, Drayzer va Malo adabiyot orqali insoniyat tafakkurining boyligini namoyon etgan, jahon adabiyotida o‘z nomini oltin harflar bilan yozdirgan va asarlari bugungi kun adiblari uchun ham namuna bo‘lib kelayotgan serqirra ijodkorlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dreiser, T. (1998). Sister Carrie: The Pennsylvania Edition. University of Pennsylvania Press.
2. Dreiser, T. (2021). An American Tragedy. Graphic Arts Books.
3. Malo, H. (1878). *Sans famille*. Paris: Hetzel.
4. Balay, L. (2005). *Hector Malot et la littérature de son temps*. Paris: Presses Universitaires de France.

[4] Elias, R. H. (1952). Theodore Dreiser.
[5] Fauvel, A. (2008). La voix des fous. Hector Malot et les «romans d'asile». *Romantisme*, *141*(3), 51-64.

5. Elias, R. H. (1952). Theodore Dreiser.
6. Fauvel, A. (2008). La voix des fous. Hector Malot et les «romans d'asile». Romantisme, 141(3), 51-64.
7. Lingeman, R. (1990). *Theodore Dreiser: An American Journey, 1908–1945*. New York: Putnam Publishing Group.
8. Cady, E. H. (1969). *Theodore Dreiser: Literary and Social Critic*. Syracuse: Syracuse University Press.
9. Davirovna, K. U. (2023). Faith of romantic characters in religious ideas in the works of chateaubriand. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 13(12), 14-17.
10. Lehan, R. (2005). *Realism and Naturalism: The Novel in an Age of Transition*. Madison: University of Wisconsin Press.
11. Zaytsev, V. (2018). *Jahon adabiyoti tarixi*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
12. Karimov, S. (2020). *Adabiyot nazariyasi asoslari*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti.
13. Karshibaeva, U. D. (2022). Germena DE stal and french romanticism. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(12), 61-64.